



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba  
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....28

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

## **G'.A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalarini misolida).....86

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

## **Z.F.ERGASHEVA, G'.Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....103

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....107

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....112

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....116

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Umarova Nafisa Ahmatilloeyvna

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLAR DARSLARIDA LOYIHA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH NAZARIYASI VA METODIKASI

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar (Science) darslarida loyiha faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy metodikasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'lim bosqichida tabiiy fanlarni o'qitishda loyiha metodining nazariy va metodik jihatlarini o'rganish, uning o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rnini asoslash va uni qo'llash bosqichlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqolada loyiha faoliyatining tashkil etish tamoyillari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tabiiy fanlar bo'yicha amaliy loyiha namunalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyani oshirishda yuqori samaradorlikka ega.

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, loyiha metodi, tadqiqotchilik ko'nikmalari, hamkorlik pedagogikasi, kompetentsiya, Science, STEAM yondashuv, interaktiv ta'lim, metodika.

### ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ (SCIENCE) В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены теоретические основы и практическая методика организации проектной деятельности учащихся начальных классов на уроках естествознания (Science). Целью исследования является изучение теоретических и методических аспектов применения метода проектов в преподавании естественнонаучных предметов на ступени начального образования, обоснование его роли в развитии критического мышления учащихся и разработка этапов его применения. В статье представлены принципы организации проектной деятельности, особенности сотрудничества учителя и ученика, а также примеры практических проектов по естествознанию. Результаты исследования показывают, что метод проектов обладает высокой эффективностью в формировании научного мировоззрения учащихся, развитии навыков самостоятельного исследования и повышении мотивации к учебной деятельности.

**Ключевые слова:** начальное образование, естественнонаучные предметы, метод проектов, исследовательские навыки, педагогика сотрудничества, компетенция, Science, STEAM-подход, интерактивное обучение, методика.

### THEORY AND METHODOLOGY OF ORGANIZING PROJECT ACTIVITIES IN NATURAL SCIENCE (SCIENCE) LESSONS IN PRIMARY GRADES

#### ABSTRACT

This article covers the theoretical foundations and practical methodology of organizing project activities for primary school students in natural science (Science) lessons. The aim of the study is to examine the theoretical and methodological aspects of the project method in teaching natural sciences at the primary education level, to substantiate its role in developing students' critical thinking, and to develop the stages of its application. The article presents the principles of organizing project activities, the specific features of cooperation between teacher and student, as well as examples of practical projects in natural sciences. The results of the study indicate that the project method is highly effective in shaping students' scientific worldview, developing independent research skills, and increasing motivation for learning activities.

**Keywords:** primary education, natural sciences, project method, research skills, pedagogy of cooperation, competence, Science, STEAM approach, interactive learning, methodology.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri bu o'quvchilarga tayyor bilimlarni passiv tarzda berishdan ko'ra, ularda mustaqil bilim olish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini faol tarzda shakllantirishdir. XXI asrning global talablari har biri sohasining mutaxassisi bo'lgan, tez o'zgaruvchan sharoitda ish qila oladigan va doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib boradigan shaxslarni tayyorlashni talab qiladi. Bu talablar boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab hayotning barcha sohalarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi islohotlar, xususan, yangi avlod darsliklarining joriy etilishi, STEAM yondashuvining kengayishi va interaktiv ta'lim usullarining kintroduksiyasi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda yangicha metodikalarni talab etmoqda. An'anaviy dars usullari o'quvchilarda asosiy bilimlarni shakllantirishda ma'lum darajada samarali bo'lsa-da, ular bolalarning izlanuvchanligini, ijodkorligini va ilmiy dunyoqarashini to'liq rivojlantirishga yetarli emas. Shu nuqtayi nazardan, loyiha faoliyatini tashkil etish o'quvchilarni atrof-muhitni ilmiy anglashga, tabiat qonunlarini tushunishga va o'z kuzatishlari asosida xulosa chiqarishga undovchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar o'qitishda loyiha metodidan foydalanish bo'yicha ilmiy-adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati umumiy pedagogik qarashlarga asoslangan bo'lib, maxsus tabiiy fanlar metodikasi nuqtai nazaridan yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'lim amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan: loyiha metodi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda loyiha faoliyatini tashkil etish tamoyillarini aniqlash, tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish, shuningdek, loyiha faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini belgilash.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tabiiy fanlar (Science) o'quv fani sifatida o'quvchilarni tabiat qonunlarini o'rganish, ilmiy usullarni o'zlashtirish va ilmiy dunyoqarashni

shakllantirishga qaratilgan. Tabiiy fanlar o'z ichiga botanika, zoologiya, kimyo, fizika, geografiya va ekologiya kabi fanlarni qamrab oladi. Bu fanlar loyiha faoliyati uchun eng qulay muhit hisoblanadi, chunki ular doimiy ravishda kuzatish, tajriba va izlanishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar o'qitishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda tabiatga muhabbat va ehtiyotkorlik hissini tarbiyalash, sodda ilmiy tushunchalar va atamalarni shakllantirish, kuzatish, taqqoslash, tasniflash va xulosa chiqarish kabi tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish ko'nikmalarini hosil qilish. Barcha bu maqsadlar loyiha metodi yordamida samarali amalga oshirilishi mumkin. Loyiha faoliyati tabiiy fanlar darslarida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: birinchidan, o'quvchilar o'zlari tanlagan mavzu bo'yicha chuqurroq izlanish olib boradi va bu ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi; ikkinchidan, jamoa bo'lib ishlash orqali kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi; uchinchidan, amaliy faoliyat orqali nazariy bilimlar mustahkamlanadi; to'rtinchidan, o'quvchilar o'z ish natijalarini taqdimot qilish orqali o'z-o'zini baholash va boshqa o'quvchilardan o'rganish ko'nikmalarini egallaydi.

**Tahlil va natijalar.** Tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini samarali tashkil etish uchun bir nechta asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim. Birinchi tamoyil bu ixtiyoriylik tamoyilidir. Loyiha faoliyati o'quvchilar ixtiyorida bo'lishi kerak, ya'ni ular o'zlari mavzuni tanlash, guruhga birlashish va ish usulini belgilash huquqiga ega bo'lishlari kerak. O'qituvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va maslahatchi rolida qatnashadi. Ikkinchi tamoyil bu amaliylik tamoyilidir. Loyiha faoliyati nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar o'zlari yig'gan ma'lumotlar, o'tkazgan tajribalar va kuzatishlar asosida amaliy mahsulot yaratishi kerak. Bu mahsulot devoriy gazeta, maket, muloqot, video rolik, taqdimot yoki boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Uchinchi tamoyil bu bosqichlilik tamoyilidir. Loyiha faoliyati aniq bosqichlarga bo'linishi va har bir bosqichda o'quvchilar aniq vazifalarni bajariishi kerak. Bu bosqichlar mantiqan bir-biriga bog'liq bo'lib, oxirgi natijaga olib keladi.

To'rtinchi tamoyil bu hamkorlik tamoyilidir. Loyiha faoliyati odatda guruhlarda olib boriladi va bu o'quvchilarda jamoada ishlash,

boshqalarning fikrini tinglash, o'z fikrini himoya qilish va kompromissga kelish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Beshinchi tamoyil bu natijaviylik tamoyilidir. Har bir loyiha aniq natijaga ega bo'lishi kerak va bu natija boshqalar bilan baham ko'rilishi lozim. Bu o'quvchilarda muvaffaqiyat hissini shakllantiradi va ularning keyingi faoliyatiga motivatsiya beradi.

Xalqaro pedagogik amaliyotda loyiha faoliyatini tashkil etishning turli usullari mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani "5P" usulidir. Bu usul besh bosqichni o'z ichiga oladi va har bir bosqich ingliz tilidagi so'zning birinchi harfi bilan belgilangan. Birinchi bosqich — Muammo (Problem). Bu bosqichda o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan hayotiy muammo o'rta tashlanadi. Muammo o'quvchilar yoshiga va qiziqishlariga mos bo'lishi, shuningdek, tabiiy fanlar doirasi ichida bo'lishi kerak. Masalan: "Nega kuzda barglar sarg'ayadi?", "Qanday qilib chiqindilarni kamaytirish mumkin?", "Nima uchun ba'zi hayvonlar qishda uyquga ketadi?", "Suv qanday ifloslanadi va uni tozalash usullari nima?" kabi savollar muammoni ifodalaydi. Bu bosqichda o'quvchilar muammoni tushunadi, uning mohiyati haqida dastlabki fikrlarni aytadi va ishning maqsadini aniqlaydi.

Ikkinchi bosqich — Rejalashtirish (Planning). Bu bosqichda loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruh a'zosiga aniq vazifalar taqsimlanadi, axborot manbalari aniqlanadi, kerakli materiallar va asboblarni ro'yxati tuziladi, vaqt jadvali belgilanadi. Bu bosqichda o'qituvchi faol ishtirok etadi, lekin asosiy qarorlarni o'quvchilar o'zlari qabul qiladi. Guruhlarda lavozimlar taqsimlanadi: guruh rahbari, kotib, hisobchi, materiallar javobgari va hokazo[2;3;4].

Uchinchi bosqich — Izlanish (Research). Bu bosqichda o'quvchilar ma'lumot to'playdilar, tajribalar o'tkazadilar, kuzatishlar olib boradilar, statistik ma'lumotlarni yig'adi va tahlil qiladilar. Izlanish jarayonida o'quvchilar turli manbalardan foydalanadi: darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar, internet, intervyular, kuzatishlar va eksperimentlar. Bu bosqichda o'qituvchi "fasilitator" (yo'naltiruvchi) vazifasini bajaradi: o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, kerak bo'lsa yordam beradi, ammo asosiy ishni ular o'zlari bajaradi.

To'rtinchi bosqich — Mahsulot (Product). Bu bosqichda izlanish natijasi moddiy yoki

intellektual mahsulotga aylanadi. Mahsulot turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: gerbariy (o'simliklar to'plami), model, maket, devoriy gazeta, buklet, muloqot, video rolik, taqdimot, hisobot va hokazo. Muhim jihat shundaki, mahsulot o'quvchilar o'zlari tomonidan yaratilgan bo'lishi va ular izlanish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini aks ettirishi kerak. Beshinchi bosqich — Taqdimot (Presentation). Bu bosqichda o'quvchilar o'z ishlarini sinfga yoki kengaytirilgan auditoriyaga namoyish etadilar, o'z ish usullari va natijalari haqida ma'lumot beradilar, boshqa o'quvchilarning savollariga javob beradilar va o'z-o'zini baholaydilar. Taqdimot davrida o'quvchilarning nutq va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi, ular o'z mehnatini himoya qilishni o'rganadi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinflar uchun tabiiy fanlar darslarida turli xildagi loyihalarni qo'llash mumkin. Har bir loyiha turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli o'quv maqsadlariga xizmat qiladi.

Tadqiqot loyihalari (Research Projects) — bu eng murakkab va to'liq ilmiy izlanishni talab qiladigan loyiha turi. Bu loyihalarda o'quvchilar muammoni aniqlaydi, gipoteza ilgari suradi, izlanish olib boradi, natijalarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Misollar: "Suvning tozaligi", "Tuproq turlari va ularning xususiyatlari", "Quyosh soatini yasash va uning ishlash prinsipi", "Turli o'simliklarning o'sish sharoiti". Tadqiqot loyihalari o'quvchilarda ilmiy usullarni o'zlashtirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samarali.

Ijodiy loyihalar (Creative Projects) — bu o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyiha turi. Bu loyihalarda o'quvchilar o'z imaginyon va ijodkorliklarini namoyon qiladilar. Misollar: "Tabiatni asraylik" mavzusida plakatlar tanlovi, "Kelajak shahri" ekologik maketi, "Mening sevimli hayvonim" mavzusida rasmlar albomi, "Tabiat go'zalliklari" mavzusida she'rlar to'plami. Ijodiy loyihalar o'quvchilarda estetik did va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Axborot loyihalari (Information Projects) — bu ma'lum to'plash va uni tizimlashtirishga yo'naltirilgan loyiha turi. Bu loyihalarda o'quvchilar turli manbalardan axborot yig'adi, uni tartibga keltiradi va taqdimot shaklida namoyish etadi. Misollar: "Qizil kitobga kirgan hayvonlar" haqida ma'lumot to'plash va buklet tayyorlash, "Mening mintaqamdagi

nodir o'simliklar" mavzusida ma'lumotlar bazasi yaratish, "Dunyo bo'ylab ekoturizm" mavzusida taqdimot tayyorlash. Axborot loyihalari o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy-yo'naltirilgan loyihalar (Action-Based Projects) — bu aniq amaliy natijaga erishishga yo'naltirilgan loyiha turi. Bu loyihalarda o'quvchilar biror foydali ishni bajariadi va natijani ko'rsatadi. Misollar: "Sinf xonasidagi gullarni parvarishlash jadvali", "Qushlar uchun uyacha yasash va o'rnatish", "Maktab hovlisini ko'kalamrlashtirish rejalari", "Chiqqindilarni saralash uchun konteynerlar joylashtirish". Amaliy loyihalar o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyatini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish zamon talabi va pedagogik zarurat hisoblanadi. Loyiha metodi o'quvchilarni passiv tinglovchi va bilim qabul qiluvchi roldan faol tadqiqotchi va izlanuvchi roliga aylantiradi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'rganadi, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil xulosa chiqarish va o'z g'oyalarni himoya qilish ko'nikmalarini egallaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning tabiiy fanlar fanga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi. Ularda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'onaadi, chunki ular o'zlari tanlagan mavzu bo'yicha chuqurroq izlanish olib boradi va o'z kuzatishlari asosida xulosa chiqaradi. Bundan tashqari, loyiha faoliyati o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki aksariyat loyihalar guruhlarda amalga oshiriladi va har bir guruh a'zosi o'z mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Loyiha faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. O'quvchilar o'zlari yaratgan mahsulotni ko'rganda, o'z mehnati natijasini ko'rganda, muvaffaqiyat hissini tuysa va bu ularning keyingi faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu xususiyat ayniqsa boshlang'ich sinf davrida muhim, chunki bu davrda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijobiy o'z-o'zini baholash shakllanadi.

O'qituvchi uchun loyiha faoliyatini tashkil etish yangi vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi an'anaviy "bilim beruvchi" roldan "yo'naltiruvchi" (fasilitator) roliga o'tishi kerak. Bu undan yuqori

pedagogik mahorat, kreativlik, o'quvchilar qiziqishini to'g'ri yo'naltira olish va zarur hollarda ularga yordam berish qobiliyatini talab etadi. O'qituvchi loyiha jarayonida faqat kuzatuvchi bo'lmasligi, balki faol ishtirokchi va maslahatchi bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotchilariga quyidagi tavsiyalar beriladi. Birinchidan, loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir. Avval kichik loyihalar bilan boshlash, keyinchalik murakkabroq loyihalarga o'tish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, loyiha mavzularini tanlashda o'quvchilar qiziqishlari va hayotiy tajribasini hisobga olish kerak. Uchinchidan, loyiha jarayonida o'quvchilarga mustaqillik berish, ammo kerak bo'lsa yordam ko'rsatish muhimdir. To'rtinchidan, har bir loyiha oxirida taqdimot va baholashni tashkil etish shart. Beshinchidan, o'qituvchilar o'zlari ham doimiy ravishda kasbiy mahoratlarini oshirishi, yangi metod va texnologiyalarni o'rganishi lozim.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish — bu nafaqat zamonaviy ta'lim talabi, balki o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni mustaqil va ijodkor qilib tarbiyalashning samarali vositasidir. Loyiha faoliyati orqali biz nafaqat bilimli, balki tabiatni sevuvchi, atrofmuhitga mas'uliyatli munosabatda bo'ladigan va doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib boradigan shaxslarni tarbiyalaymiz. Bu esa XXI asrning global talablariga javob beradigan ta'lim tizimining asosiy maqsadidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: Fan, 2006. — 256 b.
2. Muslimov N.A., Holmatova D.M., Axmedova M.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — T.: Fan va texnologiya, 2015. — 298 b.
3. Полат Е.С. Новий педагогический и информационный технологии в образовании. — М.: Академия, 2008. — 272 с.
4. Дюи Ж. Демократия ва таълим / Таржима. — Т.: Уқитувчи, 2011. — 320 б.
5. Скаткин М.Н. Методика преподавания естествознания в начальной школе. — М.: Просвещения, 1988. — 256 с.
6. Практикум по методике преподавания естествознания / Под ред. М.Н. Скаткина. — М.: Просвещения, 1983. — 287 с.